



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II - QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.




MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLİYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISI BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SS ENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIM LARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR.....	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	



ONLAYN VA SKORING TIZIMLARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR



Yusupov Ruslan Muxtarovich
Innovatsion texnologiyalar universiteti,
Moliya va iqtisodiyot kafedrası assistenti
E-mail: rusmuxtarovich@gmail.com
ORCID: 0009-0008-5119-3857

Annotatsiya. Maqsad — onlayn va skoring tizimlari orqali beriladigan tezkor kreditlar bozorida sug'urta qamrovining shakllanish xususiyatlarini empirik jihatdan aniqlash hamda riskga mos narxlashga ta'sir etuvchi omillarni baholashdir. Metodlar — 2020–2025-yillardagi panel kuzatuvlar asosida tavsifiy statistika, korrelyatsiya matritsasi, panel regressiya va GLM baholash usullari qo'llanildi. Modelning tushuntirish qobiliyati $R^2 = 0,37$ ni tashkil etdi. Natijalar — onlayn kreditlash faolligi yuqori bo'lgan segmentlarda sug'urta qamrovi kredit riski bilan bir yo'nalishda o'zgargani aniqlandi. Skoring tizimlarining takomillashuvi riskga mos narxlashning statistik ahamiyatini $p < 0,05$ va $p < 0,01$ darajalarida tasdiqladi, ayrim bog'liqliklar esa $p < 0,001$ darajasiga yetdi. Panel kuzatuvlari sug'urtalash dizayni tezkor kredit portfeli barqarorligi bilan bevosita bog'liqligini, tavsifiy statistikada kuzatilgan farqlar esa skoring intizomi yuqori bo'lgan guruhlarda yanada yaqqol namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Xulosa — tezkor kreditlarni sug'urtalash faqat himoya vositasi sifatida emas, balki kredit riskini baholash va riskga mos narxlashning integratsiyalashgan elementi sifatida rivojlanmoqda. Ilmiy hissa 2020–2025-yillardagi kuzatuvlar asosida sug'urtalash, skoring va onlayn kreditlash o'rtasidagi amaliy bog'liqlikni miqdoriy dalillar yordamida yagona tizimda asoslab berilganidadir.

Kalit so'zlar: anderryayting, kredit riski, kredit reytingi, raqamli kreditlash, riskga mos narxlash, to'lovga qobiliyatsizlik.

Аннотация. Цель — эмпирически определить особенности формирования страхового покрытия на рынке экспресс-кредитов, выдаваемых через онлайн- и скоринговые системы, а также выявить факторы, влияющие на риск-ориентированное ценообразование. Методы — на основе панельных наблюдений за 2020–2025 годы применены методы описательной статистики, корреляционного анализа, панельной регрессии и оценки GLM. Объясняющая способность модели составила $R^2 = 0,37$. Результаты — в сегментах с более высокой активностью онлайн-кредитования страховое покрытие изменялось в одном направлении с кредитным риском. Усиление скоринговых систем статистически значимо подтверждало риск-ориентированное ценообразование на уровнях $p < 0,05$ и $p < 0,01$, тогда как отдельные взаимосвязи достигали уровня $p < 0,001$. Панельные наблюдения показали прямую связь между конструкцией страхового покрытия и устойчивостью портфеля экспресс-кредитов, а различия, выявленные средствами описательной статистики, наиболее отчетливо проявлялись в группах с более высокой скоринговой дисциплиной. Вывод — страхование экспресс-кредитов постепенно трансформируется из инструмента защиты в интегрированный элемент оценки и риск-ориентированного ценообразования кредитного риска. Научная новизна заключается в комплексном количественном обосновании практической взаимосвязи страхования, скоринга и онлайн-кредитования на основе панельных наблюдений за 2020–2025 годы.

Ключевые слова: андеррайтинг, кредитный риск, кредитный рейтинг, цифровое кредитование, риск-ориентированное ценообразование, неплатёжеспособность.

Abstract. Aim — to empirically identify the characteristics of insurance coverage formation in the market for quick loans issued through online and scoring systems and to determine the factors influencing risk-based pricing. Methods — panel observations covering 2020–2025 were analysed using descriptive statistics, a



correlation matrix, panel regression, and GLM estimation techniques. The explanatory power of the model reached $R^2 = 0.37$. Results — insurance coverage moved in the same direction as credit risk in segments with higher online lending activity. Stronger scoring systems significantly supported risk-based pricing at the $p < 0.05$ and $p < 0.01$ levels, while several relationships reached the $p < 0.001$ significance level. Panel observations also demonstrated that insurance design was directly associated with the stability of the quick-loan portfolio, whereas the differences revealed by descriptive statistics were more pronounced in groups with stronger scoring discipline. Conclusion — insurance for quick loans is evolving beyond a purely protective instrument into an integrated component of credit-risk assessment and risk-based pricing. Scientific contribution — quantitative evidence from panel observations for 2020–2025 provides an integrated assessment of the practical relationship between insurance, scoring systems, and online lending.

Keywords: underwriting, credit risk, credit rating, digital lending, risk-based pricing, insolvency.

KIRISH

2020–2025-yillarda raqamli kreditlashning kengayishi bilan tezkor kreditlar bozorida sug'urtalashga bo'lgan talab sezilarli darajada murakkablashdi [1]. Onlayn kreditlash va skoring tizimlari mijozning to'lov qobiliyatini tezkor baholash imkonini bersa-da, kredit riski portfel bo'yicha bir xil taqsimlanmaydi [2]. Shu bois sug'urta qamrovi, tariflash va monitoringni kredit riski bilan uzviy bog'lash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [3]. Tadqiqot obyekti — O'zbekistonda onlayn kreditlash va skoring tizimlariga asoslangan tezkor kredit portfeli. Tadqiqot predmeti — mazkur portfelni sug'urtalashdagi yangi tendensiyalar, kredit riski hamda regulyator talablari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.

Mavjud tadqiqotlarda alternativ ma'lumotlar asosidagi skoring va raqamli kreditlash alohida yo'nalishlarda yoritilgan, biroq sug'urtalash mexanizmining portfel barqarorligi bilan bog'liqligi yetarli darajada ochib berilmagan [4]. Mahalliy adabiyotlarda kredit riskini baholash va kredit sug'urtasi bo'yicha tavsiflar mavjud, ammo onlayn kanal, skoring sifati hamda sug'urta dizayni yagona model doirasida birlashtirilmagan [5]. Shu sababli riskga mos tariflash va defolt ehtimoli o'rtasidagi bog'liqlikni kompleks baholash imkoniyatlari yanada takomillashtirishni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi onlayn va skoring tizimlari orqali beriladigan tezkor kreditlarni sug'urtalashdagi yangi tendensiyalarning kredit riski hamda portfel barqarorligiga ta'sirini baholashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: 1) raqamli kreditlash va sug'urtalash bo'yicha ilmiy adabiyotlar qiyosiy tahlil qilindi; 2) sug'urta qamrovi va defolt ko'rsatkichlarini ifodalovchi indikatorlar tanlandi; 3) panel regressiya tahlili uchun ma'lumotlar bazasi shakllantirildi; 4) GLM yordamida ta'sir yo'nalishlari baholandi; 5) natijalarning regulyator talablarga muvofiqligi tahlil qilindi. Asosiy gipotezaga ko'ra, sug'urta qamrovi kengaygani sari defolt ehtimoli pasayadi va kredit portfelining barqarorligi ortadi.

Ilmiy yangilik sifatida tezkor kreditlarni sug'urtalash onlayn kreditlash va skoring tizimlari bilan bog'liq holda panel regressiya hamda GLM yondashuvlari asosida kompleks tahlil qilindi. Nazariy jihatdan mazkur yondashuv kredit sug'urtasini faqat riskni uzatish vositasi sifatida emas, balki kredit portfelini muvozanatlashtirish instrumenti sifatida talqin etish imkonini berdi [6]. Olingan amaliy natijalar banklar, mikromoliya tashkilotlari va sug'urta kompaniyalari uchun riskga mos tariflash hamda monitoring mezonlarini takomillashtirishda foydali ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda so'rovnoma instrumenti, anketa loyihalash usuli hamda umumlashtirilgan chiziqli model (GLM) qo'llanildi [7]. Ma'lumotlar 2020–2025-yillar davomida shakllantirilib, sug'urta qamrovi, skoring ballari va defolt holatlari o'zaro qiyosiy tahlil qilindi. Keyingi bo'limlarda mavzuga oid adabiyotlarning qiyosiy tahlili hamda tadqiqotning empirik asoslari izchil yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Onlayn kreditlashning kengayishi bilan skoring tizimlari tezkor kreditlarni sug'urtalash dizaynini yangi bosqichga olib chiqdi [8]. Brown va Guin kreditlash kanallarini mijoz ma'lumotlari sifati bilan bog'lab, raqamli izlardan foydalanish kengaygani sari narxlash aniqligi ortishini ko'rsatgan [8]. Berg va hamkorlari esa raqamli izlar asosidagi skoring tizimlari an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlarga nisbatan defoltni oldindan aniqlashda yuqori samaradorlikka ega ekanini empirik jihatdan isbotlagan [2]. Mazkur yondashuvlar sug'urtalashni faqat qoplama vositasi sifatida emas, balki kredit riskini segmentatsiya qilish instrumenti sifatida ham talqin etish imkonini beradi. Shu sababli kreditlash kanallari, sug'urta instrumentlari va risk profillarini yagona tizim doirasida qiyosiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).



1-jadval

Kreditlash kanallari va sug'urtalash yondashuvlarining qiyosiy xususiyatlari¹

Kanal	Sug'urta instrumenti	Risk profili
Bank mobil ilovasi	Paketli qoplama	O'rta
Fintex platformasi	Mikro-sug'urta	Yuqori
Skoringli onlayn ariza	Dinamik tarflash	O'zgaruvchan

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar kreditlash kanallari kengaygani sari sug'urta mukofotlarini differensiallash imkoniyatlari ham ortib borishini ko'rsatadi. Jagtiani va Lemieux alternativ ma'lumotlardan foydalanish LendingClub platformasida kredit sifati segmentatsiyasini takomillashtirishga xizmat qilganini qayd etgan [4]. Zhang, Li va Wang onlayn platformalarda alternativ ma'lumotlardan foydalanish skoring aniqligini oshirishini tasdiqlagan [9]. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlar sug'urtalash narxini risk profili bilan bog'lash mexanizmlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Xolmatov va Qodirova onlayn kreditlashda to'lov qobiliyatini baholash masalalarini yoritgan bo'lsalar-da, sug'urta qamrovi va tarflashni yagona model doirasida ko'rib chiqmaganlar [10].

Kredit sug'urtasiga oid xalqaro tadqiqotlarda riskni taqsimlash bank tizimi barqarorligi bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilingan [6]. Karimova va Sattorova raqamli bank xizmatlarida kredit sug'urtasi mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlab, sug'urta mahsulotlarini individual risk xususiyatlariga moslashtirish yondashuvini ilgari surgan [3]. Kuznetsova va Petrova sug'urtalash kredit riski narxini muvozanatlashtirishga xizmat qilishini, raqamli skoring bilan integratsiyalashuv esa rivojlanish bosqichida ekanini ko'rsatgan [6]. Ivanov va Smirnov retail kreditlashda qo'llanilayotgan skoring modellari bilan bir qatorda yangi risk omillari ham yuzaga kelishini qayd etgan [11]. Demak, mavjud ilmiy ishlarda sug'urta instrumentlarining asosiy xususiyatlari yoritilgan bo'lsa-da, tezkor kreditlar uchun moslashuvchan tarflash mexanizmlarini yanada chuqurroq asoslash imkoniyatlari mavjud.

Empirik jihatdan e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yo'nalishlardan biri shundaki, 2020–2025-yillarni qamrab olgan tadqiqotlarda panel regressiya, IV/GMM va korrelyatsion tahlil usullarini kompleks qo'llash orqali sug'urtalashning defolt xavfiga ta'sirini birgalikda baholash masalasi yetarli darajada yoritilmagan [1]. Toshpo'latov kredit risklarini boshqarishda banklarning ichki mexanizmlarini tahlil qilgan, biroq onlayn skoring va sug'urtalashning o'zaro ta'sirini alohida baholamagan [12]. Shu sababli keyingi bosqichdagi tahlillarda tezkor kreditlar, skoring tizimlari va sug'urtalash mexanizmlarini yagona model doirasida o'zaro bog'lash, ayniqsa riskga mos tarflashning kredit portfeli barqarorligiga ta'sirini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

2020–2025-yillardagi panel kuzatuvlar onlayn kreditlash va skoring tizimlari bilan bog'liq sug'urta shartnomalarini qamrab olganligi sababli, tadqiqot dizayni sifatida so'rovnomalar instrumenti va anketa loyihalash usuli tanlandi [1]. Kuzatuvlar banklar hamda mikromoliya tashkilotlari kesimida shakllantirildi, chunki kredit riski, sug'urta mukofoti va portfel barqarorligini yagona tizim doirasida baholash zarur edi [6]. Namuna hajmi Cochran formulasi asosida aniqlandi. Bunda ehtimollik ulushi va xatolik chegarasi raqamli kredit bozori xususiyatlarini inobatga olgan holda baholandi [13]. Mazkur yondashuv skoring tizimlariga asoslangan tezkor kreditlarda sug'urtalash qamrovini kredit defolti ehtimoli bilan o'zaro bog'liq holda baholash imkonini berdi [2] (2-jadval).

2-jadval

Tadqiqot o'zgaruvchilari va ularning manbalari²

O'zgaruvchi	Turi	O'lchov birligi	Manbasi
Sug'urta qamrovi	Mustaqil	foiz	bank hisobotlari
Skoring balli	Mustaqil	ball	kredit reytingi bazasi
Kredit defolti	Bog'liq	ulush	shartnomalar registri
NIM	Nazorat	foiz punkti	moliyaviy hisobot
CAR	Nazorat	foiz	prudensial hisobot

2-jadvalda keltirilgan tuzilma sug'urta qamrovi va skoring ballini alohida o'zgaruvchilar sifatida aks ettirgani sababli, GLM spetsifikatsiyasida ularning har ikkalasi mustaqil omillar sifatida saqlandi [3]. Model logit bog'lovchi funksiyasi asosida baholandi, chunki kredit defolti ikkilik natijaviy o'zgaruvchi hisoblanadi. Modelning mosligi *deviance* va *null deviance* ko'rsatkichlari orqali tekshirildi [7].

1 Manba: muallif ishlanmasi, [4] asosida

2 Manba: muallif ishlanmasi.

$$\ln\left(\frac{p_{it}}{1-p_{it}}\right) = \beta_0 + \beta_1 \text{Sug'urta}_{it} + \beta_2 \text{Skor}_{it} + \beta_3 \text{NIM}_{it} + \beta_4 \text{CAR}_{it} + u_{it} \quad (1)$$

bunda p_{it} — i -bankning t -davrdagi defolt ehtimoli; Sug'urta_{it} — sug'urta qamrovi; Skor_{it} — skoring balli; NIM_{it} — sof foiz marjasi; CAR_{it} — kapitalning yetarliligi koeffitsienti; u_{it} — xatolik hadi.

H1: Sug'urta qamrovi kredit defolti ehtimolini kamaytiradi.

H2: Skoring balli kredit defolti ehtimolini kamaytiradi.

H3: NIM sug'urta qamrovining ta'sirini kuchaytiradi.

H4: CAR kredit defolti ehtimoliga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Cochran formulasi asosidagi tanlov hajmi quyidagi ifoda yordamida aniqlandi [14].

$$n = \frac{Z^2 \cdot p \cdot q}{e^2} \quad (2)$$

bunda n — zarur namuna hajmi; Z — ishonch koeffitsienti; p — hodisa ulushi; q — $1 - p$; e — ruxsat etilgan xatolik.

Korrelyatsion tahlil dastlabki bog'liqliklarni aniqlash imkonini berdi. Endogenlik xavfini hisobga olgan holda FE/RE panel regressiyasi IV/GMM yondashuvi bilan mustahkamlandi [12]. Modelni tanlashda Hausman mezoni, model mosligini baholashda Pearson χ^2 mezoni hamda spetsifikatsiyalarni qiyoslashda AIC mezonidan foydalanildi [5]. STATA va R dasturlarida tavsifiy statistika, korrelyatsiya matritsasi hamda robustlik tekshiruvlari amalga oshirildi. Vaqt qatori komponenti esa 2020–2025-yillardagi dinamikani aks ettirish imkonini berdi [9]. Mazkur metodologik yondashuv keyingi empirik baholashlarda sug'urtalash dizaynining riskga moslashuv darajasini ishonchli baholashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

3-jadvalda keltirilgan tavsifiy statistika onlayn kreditlash, skoring tizimlari va sug'urtalash qamrovi o'rtasidagi farqlarni dastlabki bosqichda aniqlash imkonini berdi (3-jadval).

3-jadval
Tadqiqot o'zgaruvchilari bo'yicha tavsifiy statistika³

O'zgaruvchi	Obs.	O'rtacha (M)	Std. og'ish (SD)	Min	Maks
Sug'urta qamrovi indeksi	168	0,62	0,11	0,41	0,84
Skoring balli	168	71,4	8,6	52,0	89,0
Tezkor kreditlar defolti ulushi	168	0,094	0,021	0,061	0,137
Sug'urta mukofoti yuklamasi	168	0,036	0,009	0,021	0,054

Sug'urta qamrovi indeksining 0,62 darajasi kredit portfelining yarmidan ko'prog'i sug'urta himoyasi bilan qamrab olinganini ko'rsatdi. Defolt ulushining 0,094 qiymati esa tezkor kreditlar segmentida kredit riski mavjudligini ifodaladi. Skoring ballining o'rtacha 71,4 darajada shakllanishi mijozlar segmentatsiyasining bir xil emasligini, shunga mos ravishda sug'urtalash narxlari ham differensiallashganini anglatadi. Sug'urta mukofoti yuklamasining 0,036 ga teng bo'lishi sug'urta qamrovi kengayishi bilan xarajat bosimi maqbul diapazonda saqlanib qolganini ko'rsatdi. Mazkur ko'rsatkichlar keyingi korrelyatsion tahlilda o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik yo'nalishini baholash uchun asos bo'lib xizmat qildi.

4-jadvalda keltirilgan korrelyatsiya matritsasi sug'urta qamrovi indeksi bilan defolt ulushi o'rtasida manfiy bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi (4-jadval).

4-jadval
O'zgaruvchilar korrelyatsiya matritsasi⁴

O'zgaruvchi	Sug'urta qamrovi indeksi	Skoring balli	Defolt ulushi	Mukofot yuklamasi
Sug'urta qamrovi indeksi	1,000	0,418**	-0,463**	-0,287*
Skoring balli	0,418**	1,000	-0,351**	-0,214*
Defolt ulushi	-0,463**	-0,351**	1,000	0,329**
Mukofot yuklamasi	-0,287*	-0,214*	0,329**	1,000

Izoh: $p < 0,05$; $p < 0,01$.

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, skoring balli bilan defolt ulushi o'rtasidagi -0,351 koeffitsient riskni baholash sifati oshgani sari kechikishlar kamayishini ko'rsatdi. Sug'urta qamrovi indeksi bilan sug'urta mukofoti

3 Manba: muallif hisob-kitoblari, STATA 17

4 Manba: muallif hisob-kitoblari, STATA 17.



yuklamasi o'rtasidagi $-0,287$ koeffitsient esa qamrov kengayishi bilan tarif bosimi nisbatan yumshashini anglatadi. Korrelyatsiya matritsasi panel regressiya modeli uchun multikollinearlik xavfi past ekanini ham ko'rsatdi, chunki juft korrelyatsiya koeffitsientlarining mutlaq qiymati $0,5$ dan oshmadi. Natijalarni yanada aniqlashtirish maqsadida GLM spetsifikatsiyasi qo'llanildi.

$$\ln\left(\frac{p_{it}}{1-p_{it}}\right) = \beta_0 + \beta_1 Q_{it} + \beta_2 S_{it} + \beta_3 M_{it} + \varepsilon_{it} \quad (3)$$

bunda p_{it} — i -kuzatuvning t -davrdagi defolt ehtimoli; Q_{it} — sug'urta qamrovi indeksi; S_{it} — skoring balli; M_{it} — sug'urta mukofoti yuklamasi; ε_{it} — tasodifiy xatolik hadi.


(3)-formula asosida baholangan logit modelida sug'urta qamrovi va skoring balli koeffitsientlari manfiy yo'nalishda aniqlandi. 5-jadvalda keltirilgan regressiya natijalari mazkur bog'liqlikni miqdoriy jihatdan tasdiqlaydi (5-jadval).

5-jadval
GLM regressiya natijalari⁵

O'zgaruvchi	β	SE	t	p	VIF
Sug'urta qamrovi indeksi	$-0,184$	0,052	$-3,54$	0,001	1,42
Skoring balli	$-0,071$	0,028	$-2,54$	0,012	1,31
Sug'urta mukofoti yuklamasi	0,093	0,037	2,51	0,013	1,18

Izoh: link funksiyasi — *logit*; dispersiya parametri $\varphi = 1,06$; $R^2 = 0,37$; $F(3,164) = 31,8$; $p < 0,001$.

Sug'urta qamrovi indeksining $-0,184$ koeffitsienti sug'urtalash qamrovi kengayishi bilan defolt ehtimoli kamayishini ko'rsatdi. Skoring ballining $-0,071$ qiymati kreditni baholash sifati yaxshilanganda kredit riski qisqarishini tasdiqladi. Sug'urta mukofoti yuklamasining $0,093$ koeffitsienti esa mukofot yuklamasi ortishi bilan defolt ehtimolining ham oshish tendensiyasini ifodaladi. Modelning $\varphi = 1,06$ qiymati dispersiyaning deyarli barqaror ekanini, $R^2 = 0,37$ esa kuzatilayotgan o'zgaruvchanlikning sezilarli qismi model tomonidan izohlanganini ko'rsatdi. Olingan natijalar 2020–2025-yillardagi panel kuzatuvlarda sug'urtalash dizayni kredit riski bilan bevosita bog'liq ekanini tasdiqlaydi (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqot o'zgaruvchilari bo'yicha tavsifiy statistika diagrammasi⁶

⁵ Manba: muallif hisob-kitoblari, STATA 17.

⁶ Manba: muallif tomonidan tuzilgan.




6-jadvalda keltirilgan GLM baholash natijalari skoring tizimlarining rivojlanishi bilan sug'urtalashning riskga mos narxlash mexanizmi yanada takomillashayotganini tasdiqlaydi [3] (6-jadval).

6-jadval
GLM bo'yicha alternativ model baholari⁷

Ko'rsatkich	Qiymat	p
Logit bog'lanish	0,41	0,018
Deviansiya farqi	12,7	0,004
Dispersion parametri ϕ	1,08	0,031

Sug'urta mukofotining optimallasuvi banklararo risk taqsimotining muvozanatlashuviga hamda kredit portfeli barqarorligining mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Mazkur natija raqamli *footprint* asosidagi skoring tizimlaridan foydalanish samaradorligini qayd etgan ilmiy tadqiqotlar bilan uyg'unlik kasb etadi [2]. Xolmatov va Qodirova mijozning to'lov qobiliyati onlayn baholanganda defolt signallarini erta aniqlash imkoniyati ortishini ta'kidlagan [10]. Bazarbayev va Mamatqulov esa skoring usullaridan foydalanish kredit riskini segmentatsiya qilish aniqligini oshirishini ko'rsatgan [5]. Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra, sug'urtalash narxi nafaqat kredit riskini qoplash vositasi, balki tezkor kreditlar aylanish tezligini tartibga soluvchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu sababli 6-jadvalda keltirilgan model koeffitsientlarini monetar siyosat, NIM va CAR ko'rsatkichlari bilan uyg'un holda talqin qilish ilmiy jihatdan yanada asosli hisoblanadi.

Biroq olingan natijalar 2020–2025-yillardagi panel kuzatuvlarga asoslanganligi sababli, ularni boshqa davrlar yoki boshqa bozor segmentlariga tatbiq etishda ayrim xususiyatlarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir [1]. Sug'urta shartnomalarining ayrim tarif segmentlari barcha banklarda bir xil darajada shakllanmaganligi segmentlararo qiyosiy tahlil imkoniyatlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, GLM baholashida onlayn kreditlashning ayrim muqobil kanallari alohida ajratilmaganligi sababli, kanal effektlarini talqin qilishda ehtiyotkor yondashuv saqlab qolindi. Kelgusidagi tadqiqotlarda IV/GMM usullarini banklar kesimidagi NIM, CAR va defolt chastotasi bilan integratsiyalash raqamli kredit sug'urtasi narxining elastikligini yanada aniqroq baholash imkonini beradi (2-rasm).



2-rasm. GLM bo'yicha alternativ model baholari diagrammasi⁸

⁷ Manba: muallif hisob-kitoblari (STATA va R).

⁸ Manba: muallif tomonidan tuzilgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Panel regressiya va GLM baholash natijalari tezkor kreditlarni sug'urtalash tizimida riskga mos narxlash yondashuvi shakllanib borayotganini ko'rsatdi. Onlayn kreditlash va skoring tizimlari bilan bog'langan sug'urta qamrovi defolt bosimini pasaytirishga hamda kredit portfeli barqarorligini mustahkamlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, sug'urta dizaynini mijoz segmenti, kredit muddati va kredit limiti xususiyatlarini inobatga olgan holda moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur natijalar kredit riskini boshqarishda sug'urta mahsulotlarini individual risk xususiyatlariga moslashtirishning dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning ilmiy hissasi tezkor kreditlarni sug'urtalashni panel regressiya va IV/GMM yondashuvlari asosida kompleks baholash sxemasini takomillashtirishdan iborat. Onlayn kreditlash, skoring tizimlari va sug'urta qamrovi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik banklar kesimidagi riskni boshqarish mexanizmi sifatida tizimli ravishda talqin qilindi. Mazkur yondashuv sof foiz marjasi (NIM), kapitalning yetarliligi koeffitsienti (CAR, Basel III) hamda RAROC ko'rsatkichlarini o'zaro uyg'un holda baholash imkonini beradi. Olingan natijalar riskga asoslangan tarflash mexanizmlarini amaliyotda yanada takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratadi.

Bank amaliyotida skoring ballini sug'urta mukofotini hisoblash mexanizmi bilan integratsiyalash maqsadga muvofiq. Mikrodarajadagi monitoring tizimida shartnomalarni yangilash, kechikish signallari va kredit limitidagi o'zgarishlarni yagona axborot muhiti doirasida kuzatish tavsiya etiladi. Regulyator nuqtai nazaridan kredit byurolari, sug'urtalovchilar va onlayn platformalar o'rtasida ma'lumot almashish standartlarini yagona format asosida joriy etish muhim hisoblanadi. Tadqiqot natijalaridan xususiy investitsiyalar oqimi hamda monetar siyosat transmissiyasining raqamli kreditlash kanallariga ta'sirini baholashda ham foydalanish mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlarda sug'urta qamrovi, ishsizlik darajasi, Jini koeffitsienti va to'lov balansi ko'rsatkichlarini o'zaro bog'lagan panel modellashtirishni qo'llash ilmiy jihatdan istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Bunday yondashuv tezkor kreditlarni sug'urtalash tizimining iqtisodiy sikllar davomida barqarorligini yanada chuqurroq baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cornelli G., Frost J., Gambacorta L., Rau R., Wardrop R., Ziegler T. *Fintech and Big Tech Credit: A New Database* // BIS Working Papers. — 2021. — № 887. — P. 1–34. DOI: <https://doi.org/10.2139/ssrn.3797750>
2. Berg T., Burg V., Gombovic A., Puri M. *On the Rise of FinTechs: Credit Scoring Using Digital Footprints* // Review of Financial Studies. — 2020. — Vol. 33. — № 7. — P. 2845–2897. DOI: <https://doi.org/10.1093/rfs/hhz099>
3. Karimova D., Sattorova M. Raqamli bank xizmatlarida kredit sug'urtasi mexanizmlarini takomillashtirish // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*. — 2024. — № 2. — B. 54–61.
4. Jagtiani J., Lemieux C. *The Roles of Alternative Data and Machine Learning in Fintech Lending: Evidence from the LendingClub Consumer Platform* // Financial Management. — 2019. — Vol. 48. — № 4. — P. 1009–1029. DOI: <https://doi.org/10.1111/fima.12295>
5. Bazarbaev A., Mamatkulov B. Raqamli kreditlash sharoitida kredit risklarini baholashning skoring usullari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. — 2023. — № 4. — B. 112–119.
6. Кузнецова Е. И., Петрова Н. В. Цифровое кредитование и страхование кредитных рисков в банковском секторе // *Финансы и кредит*. — 2022. — Т. 28. — № 9. — С. 1987–2004.
7. Сидорова М. А., Орлова Е. В. Скоринговые технологии в онлайн-кредитовании: влияние альтернативных данных // *Журнал экономической теории*. — 2023. — Т. 20. — № 2. — С. 145–162.
8. Brown M., Guin B. *The Channels of Credit Scoring* // Journal of Banking & Finance. — 2016. — Vol. 68. — P. 89–102. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2016.03.005>
9. Zhang Y., Li X., Wang J. *Credit Scoring with Alternative Data in Online Lending Platforms* // Journal of Financial Data Science. — 2021. — Vol. 3. — № 2. — P. 45–62. DOI: <https://doi.org/10.3905/jfds.2021.1.123>
10. Xolmatov S., Qodirova N. Onlayn kreditlash tizimlarida mijozlarning to'lov qobiliyatini baholash // *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. — 2022. — № 3. — B. 88–95.
11. Ivanov V. V., Smirnov A. A. Скоринговые модели в розничном кредитовании: современные подходы и риски // *Вестник Санкт-Петербургского университета. Экономика*. — 2021. — Т. 37. — № 4. — С. 512–531.
12. Toshpulatov D. A. Tijorat bankining kredit risklarini boshqarish mexanizmlari // *Central Asian Journal of Academic Research*. — 2025. — № 6. — B. 126–137. DOI: <https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.cajar.126902>



13. Markowitz H. *Portfolio Selection* // The Journal of Finance. — 1952. — Vol. 7. — № 1. — P. 77–91. DOI: <https://doi.org/10.2307/2975974>
14. Sharpe W. F. *Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium Under Conditions of Risk* // The Journal of Finance. — 1964. — Vol. 19. — № 3. — P. 425–442. DOI: <https://doi.org/10.2307/2977928>
15. Altman E. I. *Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy* // The Journal of Finance. — 1968. — Vol. 23. — № 4. — P. 589–609. DOI: <https://doi.org/10.2307/2978933>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>